



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VETERINARIYA VA CHORVACHILIKNI
RIVOJLANTIRISH QO'MITASI**

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI NUKUS
FILIALI**

**"VETERINARIYA MEDITSINASI VA CHORVACHILIKDAGI DOLZARB
MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMLARI" mavzusidagi xalqaro
ilmiy va ilmiy-texnik konferensiya materiallari**

TO'PLAMI

13-noyabr 2025-yil

СБОРНИК материалов

**международной научно и научно-технической конференции на тему
"АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ВЕТЕРИНАРНОЙ МЕДИЦИНЫ И
ЖИВОТНОВОДСТВА И ИХ РЕШЕНИЯ"**

13 ноября, 2025 г

**International scientific and scientific-technical conference
"ACTUAL PROBLEMS OF VETERINARY MEDICINE AND LIVESTOCK
AND THEIR SOLUTIONS"**

November 13, 2025

NUKUS-2025

“Veterinariya meditsinasi va chorvachilikdagi dolzarb muammolar va ularning yechimlari”
Xalqaro ilmiy va ilmiy-texnik konferensiyasi materiallari [Matn]: to‘plam / Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali. – Nukus: “Golden Print Nukus” nashriyoti, 2025. – 389 b.

Anjuman tashkiliy qo‘mitasi

Tashkiliy qo‘mita raisi: Esimbetov Adilbay Tlepovich, b.f.d., professor;

Tashkiliy qo‘mita raisi muovini: Avezimbetov Shavkat Dosumbetovich, v.f.n.;

Tashkiliy qo‘mita kotibi: Rozumbetov Kenjabek Umar og‘li, b.f.f.d.;

D. Bazarbayeva – “Veterinariya diagnostikasi va oziq-ovqat xavfsizligi” kafedrasida katta o‘qituvchisi, biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

Tashkiliy qo‘mita a‘zolari:

Sh. Jabbarov – O‘zbekiston Respublikasi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo‘mitasi boshqarmasi boshlig‘i o‘rinbosari, veterinariya fanlari doktori, professor.

X. Yunusov – Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti rektori, biologiya fanlari doktori, professor.

M. Y. Karpuxin – Ural davlat agrar universitetining ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektori, agrar fanlar doktori, dotsent (Rossiya Federatsiyasi)

N. G. Malkov – N. F. Vereshagin nomidagi Vologda davlat sutchilik akademiyasi rektori, texnika fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya Federatsiyasi)

A. Abdurasulov – Qirg‘iziston Respublikasi O‘sh davlat universiteti “Veterinariya meditsinasi va biotexnologiyasi” kafedrasida mudiri, qishloq xo‘jalik fanlar doktori, professor. (Qirg‘iziston Respublikasi)

R. Miqtibayeva – Qozog‘iston milliy agrar tadqiqot universiteti “Mikrobiologiya va virusologiya” kafedrasida professori, veterinariya fanlari nomzodi. (Qozog‘iston Respublikasi)

S. Mirzakulov – Olmaota texnologiya universiteti “Oziq-ovqat mahsulotlari texnologiyasi” kafedrasida professori, qishloq xo‘jalik fanlar doktori, dotsent. (Qozog‘iston Respublikasi)

Q. Atanazarov – O‘quv ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosari, biologiya fanlari nomzodi, dotsent.

A. Mambetnazarov – Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagog kadrlarni tayyorlash bo‘limi boshlig‘i, qishloq xo‘jalik fanlar doktori, dotsent.

A. Kaniyazov – “Veterinariya va zootexnologiya” fakulteti dekani, biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

X. Mamatov – “Zootexnologiya” kafedrasida mudiri, qishloq xo‘jalik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

R. Turg‘anbayev – “Zootexnologiya” kafedrasida professori, agrar fanlar doktori

A. Kamalova – “Veterinariya meditsinasi va farmakologiyasi” kafedrasida mudiri, veterinariya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

P. Xojalepesov – “Iqtisodiyot va gumanitar fanlar” kafedrasida mudiri, iqtisod fanlari nomzodi, dotsent.

R. Rzaev – “Veterinariya diagnostikasi va oziq-ovqat xavfsizligi” kafedrasida mudiri, biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.

Ushbu to‘plam O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2024-yil 27-dekabrda 490-son buyrug‘i bilan oliy ta‘lim tashkilotlari hamda ilmiy tashkilotlarda 2025-yilda o‘tkaziladigan xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy anjumanlar, simpoziumlar, seminarlar va boshqa ilmiy hamda ilmiy-texnik tadbirlar ro‘yxati 2-ilovasiga muvofiq tasdiqlangan – 2025-yilda xalqaro miqyosida o‘tkaziladigan ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar rejasi asosida Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filialida 2025-yil 13-noyabr kuni – **“Veterinariya meditsinasi va chorvachilikdagi dolzarb muammolar va ularning yechimlari”** mavzusida o‘tkazilgan Xalqaro ilmiy va ilmiy-texnik konferensiyasi materiallari asosida tuzilgan.

Konferensiyada, veterinariya sohasida faoliyat olib borayotgan universitet va filialarning professor-o‘qituvchilari, ilmiy markazlarning va insitutlarning ilmiy xodimlari, doktorantlar, magistrantlar, iqtidorli yosh tadqiqotchilarning ilmiy-tadqiqot ishlariga bag‘ishlangan maqolalar o‘rin olgan

To‘plamga kiritilgan maqolalar materiallarining to‘g‘riligi va haqqoniyligiga mualliflar mas‘ul hisoblanadi.

© Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali, 2025

© “Golden Print Nukus” nashriyoti, 2025

2. Kichik yosh oilalarni shakllantirish: Yozning ikkinchi yarmida har bir asosiy oiladan 3 ta mumkatak romli, urchigan ona arisi mavjud kichik oila ajratiladi. Bu kichik oilalar fanerli qutilarga joylashtiriladi.

3. Qutili asalarichilik tizimi: Qutili asalarichilik — bu janubiy hududlarda yetishtirilgan yosh ari oilalarini maxsus fanerli qutilarda nektarli o'simliklarga boy shimoliy yoki sharqiy tumanlarga jo'natish texnologiyasidir. Bunda qutili oilalar asal to'plash davrida yuqori natijalar beradi.

4. Ona asalarini tayyorlash: Mart–aprel oylarida erkak arilarning yetilishi va gullaydigan o'simliklarning paydo bo'lishi hisobga olinib, ona asalari g'umbaklari tayyorlanadi. Qutili oila tashkil etish vaqtigacha bu g'umbaklar yetilishi zarur.

Natijalar va muhokama. Tajriba natijalariga ko'ra, har bir asosiy ari oilasidan bittadan yangi yosh oila ajratish orqali: asal ishlab chiqarish hajmi kamaymagan; mahalliy populyatsiyaning genofondi saqlanib qolgan; ona asalarilarni o'zimizda ko'paytirish natijasida iqtisodiy samaradorlik oshgan.

Bundan tashqari, qutili asalarichilik usuli orqali janubiy hududlarda yetishtirilgan yosh oilalar shimoliy tumanlarga ko'chirilib, serasal o'simliklardan samarali foydalangan. Qutilar may oyining 10–12 kunlari jo'natilganda maksimal daromad keltirgan.

Ona asalari yetishtirishda ekologik omillar — bahorning erta kelishi, qishning yumshoqligi, erkak arilarning yetilish davri va o'simliklarning gullash fenofazalari muhim ahamiyat kasb etadi. Shu omillarni inobatga olib, ona asalarilarni ishlab chiqarish jarayoni rejalashtiriladi.

Xulosa. O'zbekiston sharoitida qutili asalarichilik texnologiyasini joriy etish orqali ona asalarilarni mahalliy sharoitda ko'paytirish, asalarichilik mahsuldorligini oshirish hamda chetdan keltirilgan zotlarga bog'liqlikni kamaytirish mumkin. Mazkur texnologiya har bir asosiy ari oilasidan qo'shimcha yosh oila olish imkonini beradi, asal ishlab chiqarish hajmini kamaytirmaydi, 284enetic xilma-xillikni saqlaydi va iqtisodiy samaradorlikni 15–20% gacha oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov B. va boshqalar. Asalarichilik asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 2018.
2. Yusupov A. Ona asalari biologiyasi va uni ko'paytirish texnologiyasi. – Samarqand, 2020.
3. O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi ma'lumotlari, 2023.
4. Тлеубаева З.С., Караматдинова Н. Асалариларнинг ўсимликларни чанглатишдаги тутган урни ва чанглатиш усуллари. - 2025.
5. Tleubayeva Z.S., O'rinbaeva N.Q. Palhárrelerdiń rawajlanıwı hám kóbeyiwı. ana hárreniń máyek qoyıw basqıshları – 2025

QO'ZILAR EKSTERERINING TURLI YOSH DAVRLARIDA O'ZGARISHI HAMDA ONALARINING ETOLOGIK TIPLARIGA BOG'LIQLIGI

Seytmusayeva Z.A¹., Orinbaeva Sh.O¹., Najimatdinov P.I¹., Xatamov A.X².

¹*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti
Nukus filiali*

²*Qorako'lg'ichilik va cho'l ekologiyasi ilmiy-tadqiqot instituti*

Kirish. Ma'lumki, turli zotga mansub qo'ylar eksterer xususiyatlari bilan bir-biridan farq qiladi. Turli mahsuldorlik yo'nalishlaridagi qo'ylarda shakllangan o'ziga xos eksterer

xususiyatlari ularning shu yo‘nalishda maksimal mahsuldorlikka va sifatli mahsulot berishiga sharoit yaratadi.

Ta’kidlash lozimki, eksterer qo‘ylar konstitusiyasining asosiy ko‘rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Ushbu ko‘rsatkich bir konstitusiya tipi ichida hayvonlarning o‘shish darajasini, go’sht mahsuldorligini baholash imkonini beradi. Shu nuqtai nazardan eksterer xususiyatlar va turli yosh davrlarida ularning o‘shishi dinamikasini o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar tahlili. Fe‘l–atvor tiplari bo‘yicha bir–biridan farq qilgan qo‘ylar o‘shish va rivojlanish ko‘rsatkichlari bo‘yicha ham bir–biridan keskin farq qilgan. I fe‘l–atvor tipiga mansub to‘qlilar go’sht mahsuldorligini belgilaydigan ko‘rakdorlik indeksi va tosko‘krak indeksi bo‘yicha II va III tipdagi qo‘ylardan ustun bo‘lishi aniqlangan.

Hayvonlarni xo‘jalik foydali belgilarini takomillashtirishda va eng asosiysi ularning mahsuldorlik bo‘yicha irsiy imkoniyatlarini to‘liq yuzaga chiqarishda, aniqrog‘i ushbu imkoniyatdan to‘liq foydalanishda biologik ko‘rsatkichlari bilan bir qatorda, ularning etologik xususiyatlari ham muhim hisoblanadi.

O‘shish va rivojlanish umumiy rivojlanishning alohida jihatlarini aks ettiradi. tirik mavjudotning o‘shishi organizmning faol qismlarining vazni oshishi, o‘shish–tana vaznining ortishi, rivojlanish–hayvonning progressiv morfo-fiziologik o‘zgarishlarining yig‘indisi, organizmning rivojlanish jarayonida xo‘jayralar, to‘qimalar va organizmda bioximik, morfologik va funksional o‘zgarishlarning vujudga kelishi, o‘shish jarayoni esa xujayralarning bo‘linishi natijasida ularning vazni va hajmi hamda xujayralararo hosilalarning ko‘payishi orqali yuzaga keladi deyilgan.

Qoraqalpog‘iston sharoitida turli juftlash variantlarida qoraqalpoq sur qorako‘l qo‘ylarida ota-ona belgilarining avlodlarda rang va jun-ola sifati ko‘rsatkichlarining namoyon bo‘lish darajalari o‘rganilgan. Olingan natijalar o‘z navbatida avlodlarda o‘shish va rivojlanish xususiyatlarining yuzaga chiqishiga ham ta’sir qiladi.

Shuningdek etologik korsatkichlarning qorako‘l qo‘ylarining o‘shish va rivojlanish hamda mahsuldorlik ko‘rsatkichlariga ta’sirini aniqlash bo‘yicha majmuaviy tadqiqot ishlari olib borilgan.

Tadqiqot ushlari. Tadqiqot uchun har xil etologik tipdagi qorako‘l qo‘ylaridan iborat 3 ta tajriba guruhi shakllantirildi.

Qorako‘l qo‘ylarini I, II, III etologik tiplarga bo‘lib o‘tkazildi. Tadqiqotlar davomida turli etologik tipdagi qoraqalpoq sur qorako‘l qo‘ylaridan olingan avlodlarning rivojlanish ko‘rsatkichlari o‘rganildi.

Qo‘ylarni etologik tiplarga ajratishda oziqlanish-harakatlanish reaksiyasi hisobga olinadi .

Turli yoshdagi qo‘ylarning (tug‘ilganda, 4-4,5 oylikda, 12 oylikda, 18 oylikda) eksterer o‘lchamlari (yag‘rin balandligi, gavdaning qiya uzunligi, ko‘krak chuqurligi, kengligi va aylanasi, poycha aylanasi) o‘lchov tayog‘i va lentasi yordamida zootexniyada umum qabul qilingan formulalar orqali aniqlandi.

Tadqiqot natijalari. Qayd etilganlarni e’tiborda tutgan holda turli etologik tipdagi qorako‘l qo‘ylardan olingan avlodlarning eksterer o‘lchamlarini va ularning yosh dinamikasini o‘rganish yo‘nalishida tadqiqot ishlari amalga oshirildi. Ma’lumotlar 1-jadvalda umumlashtirilgan.

Boshqa yosh davrlarida ham shunga o‘xshash tendensiyani kuzatishimiz mumkin. Qayd etilgan natijalar qo‘zilarda eksterer xususiyatlarining shakllanishiga ta’sir etishini ko‘rsatadi va bu holatni seleksiya jarayonida e’tiborga olish maqsadga muvofiq.

Ma’lumki, yosh davrlariga bog‘liq holda hayvonning eksterer xususiyatlari sezilarli o‘zgaradi. Embrional davrda ularda trubasimon suyaklar tez o‘ssa, postembrional davrda yalpoq suyaklarning o‘shish jadalligi keskin ortadi. Shu sababli hayvonlarning oyoqlari tug‘ilgan paytda uzun, gavdasi kalta bo‘ladi. Yosh kattarishi bilan ularning gavdasining tez o‘shish, rivojlanishiga gavdaga nisbatan oyoqlar uzunligi qisqarib boradi.


Natijalarga asoslanib aytish mumkinki, eksterer o'lchamlari bo'yicha qo'zilar tug'ilgan paytda birinchi tip qo'ylari avlodlarining ustun bolishi bilan birga, keyingi yosh davrlarida bu ustunlikning asta sekin susayishi kuzatiladi. Ikkinchi va uchinchi tipdagi qo'ylar avlodlari jadalroq o'sa boshlaydi. Bunday jadallikning yag'rin balandligi bo'yicha ikkinchi va uchinchi guruh avlodlari foydasiga 1,0 va 8,0 foizni, gavdaning qiya uzunligi bo'yicha 1,0 foizni, ko'krak kengligi bo'yicha 2,0 foizni, ko'krak aylanasi bo'yicha 1,0 foizni tashkil etishi aniqlangan.

1-jadval

Qo'ylarda eksterer o'lchamlari dinamikasi

Qo'ylarning etologik tipi	Olingan qo'zilar, bosh	Yosh davrlari	Qo'zilarining eksterer o'lchamlari, sm ($\bar{X} \pm S_x$)					
			Yag'rin balandligi	Gavdaning qiya uzunligi	Ko'krak chuqurligi	Ko'krak kengligi	Ko'krak aylanasi	Poycha aylanasi
I tip	30	tug'ilganda	35,9 $\pm$ 0,16	30,7 $\pm$ 0,14	14,4 $\pm$ 0,08	9,4 $\pm$ 0,07	39,7 $\pm$ 0,11	5,7 $\pm$ 0,07
		4-4,5 oy	55,4 $\pm$ 0,21	55,9 $\pm$ 0,19	23,2 $\pm$ 0,13	13,3 $\pm$ 0,11	67,6 $\pm$ 0,21	7,0 $\pm$ 0,04
		12 oy	64,2 $\pm$ 0,22	63,4 $\pm$ 0,21	28,4 $\pm$ 0,09	15,7 $\pm$ 0,06	77,2 $\pm$ 0,19	7,6 $\pm$ 0,04
		18 oy	65,7 $\pm$ 0,19	66,2 $\pm$ 0,22	29,8 $\pm$ 0,10	17,0 $\pm$ 0,07	83,9 $\pm$ 0,23	7,89 $\pm$ 0,05
II tip	30	tug'ilganda	35,3 $\pm$ 0,17 ^x	29,9 $\pm$ 0,15 ^x	14,1 $\pm$ 0,06 ^x	9,2 $\pm$ 0,05	39,2 $\pm$ 0,10 ^x	5,6 $\pm$ 0,06
		4-4,5 oy	54,8 $\pm$ 0,20	55,6 $\pm$ 0,21	22,9 $\pm$ 0,13	13,0 $\pm$ 0,11	67,1 $\pm$ 0,17	6,8 $\pm$ 0,04
		12 oy	63,9 $\pm$ 0,21	62,9 $\pm$ 0,20	28,2 $\pm$ 0,11	15,4 $\pm$ 0,06	76,8 $\pm$ 0,21	7,5 $\pm$ 0,05
		18 oy	65,1 $\pm$ 0,18	65,9 $\pm$ 0,21	29,3 $\pm$ 0,12	16,8 $\pm$ 0,08	83,3 $\pm$ 0,20	7,7 $\pm$ 0,03
III tip	30	tug'ilganda	34,9 $\pm$ 0,14 ^x	29,2 $\pm$ 0,13 ^x	13,9 $\pm$ 0,07 ^x	9,1 $\pm$ 0,06 ^x	38,9 $\pm$ 0,09 ^x	5,5 $\pm$ 0,06 ^x
		4-4,5 oy	54,3 $\pm$ 0,18	55,1 $\pm$ 0,18	22,4 $\pm$ 0,12	12,8 $\pm$ 0,10	66,7 $\pm$ 0,18	6,8 $\pm$ 0,04
		12 oy	63,7 $\pm$ 0,20	62,6 $\pm$ 0,21	27,9 $\pm$ 0,09	15,3 $\pm$ 0,07	76,3 $\pm$ 0,21	7,4 $\pm$ 0,05
		18 oy	66,7 $\pm$ 0,18	65,5 $\pm$ 0,23	28,9 $\pm$ 0,11	16,5 $\pm$ 0,07	82,9 $\pm$ 0,19	7,6 $\pm$ 0,04

X-P<0,05; X)-P<0,001



1-rasm. Qo'zilarining turli yosh davrlaridagi eksterer o'lchamlari, cm

Xulosa qilib aytganda, turli etologik tipdagi qorako'l qo'ylaridan olingan avlodlarda eksterer ko'rsatkichlari o'zaro farqlanib, birinchi etologik tipga mansub qo'ylardan olingan avlodlar tengqurlariga nisbatan ustunlik qilgan. Bu esa ular onalarining oziqlanish-harakatlanish darajasiga bog'liq bo'lib, ko'proq ozuqa moddalarini o'zlashtirgan sovliqlar me'yor darajasida o'sish va rivojlanish xususitlarini namoyon qilgan holda ular avlodlarida ham yuqori darajada namoyon bo'lishiga olib kelgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bobokulov, N., Khatamov, A., Abduzoirova, D., Yusupov, A., Urimbetov, A., & Olmasov, B. (2021). Meat productivity of sheep in Uzbekistan and its relationship with different factors. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 258, p. 04020). EDP Sciences.
2. Бобокулов.Н.А. Этологические основы и технологические прёмы повышения эффективности каракулеводства Узбекистана. Автореф. дисс. д-ра. с-х. наук. Ташкент. 2004. 39 с.
3. Зарытовский В.С., Лиев М.И., Емельянов Г.И. Этология овец. -М.: Агропромиздат, 1990. -141 с.
4. Кравченко Н.А. Разведение сельскохозяйственных животных. Изд-во сельхоз литературы, журналов и плакатов, 1963. 310 с.
5. Kh, Khatamov A. "Relationship of Karakul Sheep Productivity with Their Ethological Characteristics." *International Journal of Discoveries and Innovations in Applied Sciences* 1.6 (2021): 156-158.
6. Бобокулов, Н., Хатамов, А., Абдузoiрова, Д., Юсупов, А., Уримбетов, А. и Олмасов, Б. (2021). Мясная продуктивность овец в Узбекистане и её связь с различными факторами. В *E3S Web of Conferences* (т. 258, с. 04020). EDP Sciences.
7. Шакарбоев, Э. Б., Азимов, Д. А., Голованов, В. И., Кузнецов, Д. Н., Урымбетов, А. А., & Каниязов, А. Ж. (2017). Гельминты лошадей Узбекистана. *Ветеринария*, (5), 29-32.
8. Уримбетов, А. А., & Бобокулов, Н. А. (2024). Молочность каракульских овец окраски сур каракалпакского породного типа. Овцы, козы, шерстяное дело, (1), 24-26.
9. Уримбетов, А. А. (2019). Репродуктивный потенциал каракульских овец сур каракалпакского породного типа в зависимости от условий содержания на северо-западе Кызылкумов. *Экологический Вестник Северного Кавказа*, 15(4), 91-93.
10. Shakarboev, E., Safarova, F., Azimov, D., & Urimbetov, A. (2015). FAUNA, ECOLOGY AND TAXONOMY OF CYPRINIFORMES FISH HELMINTHS IN UZBEKISTAN. *The Journal of Microbiology, Biotechnology and Food Sciences*, 5(1), 88.
11. Sh, A. va Taylakov, TI (2020). Paramfistomatoz sistematikasi, diagnostika usullari, epizootologiyasi, patogenezi, kasallikning kelib chiqishi va yangi davolash usullari. *Amerika veterinariya fanlari va yovvoyi tabiatni kashf qilish jurnali* , 2 (06), 1-6.
12. Avezimbetov, S. D., Togaymuradov, M. S., & Bazarbaeva, A. A. (2021). Induction of superovulation in cattle. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(10), 1778-1781.
13. Dosumbetovich, A. S., & Komoladdinovich, K. S. (2021). New effective methods of treatment of persistent infertility in cows.
14. Shavkat, A., Kural, A., & Maryam, Y. (2025). THE IMPLEMENTATION MECHANISM OF DIGITAL TRANSFORMATION TO ENHANCE